



2020 yil iyul oyi holatiga ko'ra

## Germaniyada nikohdan o'tish maqsadida viza olish uchun kerakli hujjatlar haqida eslatma

### Umumiy ma'lumotlar:

- Barcha arizachilar arizalarini **shaxsan** topshirishlari shart. **Hujjat topshirish uchun qabulga yozilish faqat internetda, elchixonaning qabulga ro'yxatga olish tizimi orqali amalga oshiriladi**
- Germaniya yoki (Yevropa Ittifoqiga a'zo davlat fuqarosi bo'lmagan) xorijiy fuqaro bilan nikohdan o'tish uchun vizaga ariza topshirilganda qoidaga muvofiq A1 darajada nemis tilini bilish tasdiqlanishi talab etiladi.
- O'zbekistonda berilgan hujjatlarni legalizatsiyalash sharti bekor qilingan. O'zbekistonlik qalqning nikohdan o'tish huquqiga egaligi haqidagi hujjatni topshirish majburiyatidan ozod etish va nikohni rasmiylashtirish jarayoni doirasida kerak bo'ladigan va O'zbekiston Respublikasida berilgan ma'lumotnomalar uchun Germaniya FHDYOsiqa xizmat yordami sifatida hujjatlarni qayta tekshirish jarayoni amalga oshiriladi. Batafsil ma'lumotlar elchixonaning internetdagi [www.taschkent.diplo.de](http://www.taschkent.diplo.de) web-sahifasida joylashtirilgan **„O'zbekiston Respublikasida berilgan hujjatlarni qayta tekshirish haqidagi eslatma“** da keltirilgan.
- Viza arizasi Germaniyadagi xorijliklar masalalari bo'yicha idora (Auslanderbehorde)ga qaror qabul qilish uchun yuboriladi. Shu sababga ko'ra Siz o'z arizangizda Germaniyadagi shaxsning **to'liq manzilini** (ko'cha, pochta indeksi va turar joy nomini) ko'rsatishingiz lozim. Germaniya hududiga kirib kelishingiz bilan bu haqida yashash joyingizdagi xorijliklar masalalari bo'yicha mutassadi idoraga bevosita xabar berishingiz kerak. Ushbu idora Germaniya hududida qolishingiz uchun tegishli ruxsatnoma beradi.
- Arizani **ko'rib chiqish muddati 6-8 haftani** tashkil etadi. Agar qaror qabul qilinishi oldidan hujjatlarni tekshirib chiqish lozim deb topilsa, ushbu muddat uzayadi
- Arizangiz borasida qaror qabul qilinsa, elchixona xodimlari Siz bilan bog'lanadi. Rad javoblari (elektron) pochta orqali yuboriladi yoki arizachi ushbu qarorni shaxsan o'zi olib ketishi mumkin.
- **Voyaga yetmagan, birgalikda safarga chiqayotgan farzandlar uchun viza arizasini topshirishda „Bola(lar) bilan oilani birlashtirish maqsadida viza olish uchun kerakli hujjatlar**, ayniqsa, yakka vasiylikni va og'ir vaziyatdan yechim topish doirasida Germaniyaga safarni asoslovchi hujjatlar haqidagi tegishli eslatmalar bilan tanishib chiqishingizni so'raymiz
- Nikohdan o'tish maqsadidagi viza uchun konsullik badali 75 yevroni va har bir voyaga yetmagan bola uchun 37,50 yevroni tashkil etadi. To'lov viza arizasi topshirilayotgan vaqtda **faqat o'zbek so'mida** amalga oshiriladi. Kupyuralar 2001 yildan eski bo'lmasligi, yaxshi holatda, muhr va yozuvlarsiz bo'lishi shart



### **Ariza topshirish uchun quyidagi hujjatlar talab qilinadi:**

Eslatma: arizaga taaluqli hujjatlarning **DIN A4 formatidagi** nusxalarini quyidagi tartibda **sahifalarini biriktirmagan xolda ikkita to'liq to'plamga** ajrating. Uchinchi to'plam huddi shu tartibda, hujjatlarning aslidan iborat bo'lishi lozim. Hujjatlarning asli viza bo'limi tomonidan Sizga qaytariladi.

- Nemis tilida batafsil to'ldirilgan va imzolangan 2 ta viza ariza blanki hamda 3 dona biometrik fotosurat. (2ta fotosurat ariza blankiga yelimplangan bo'lishi kerak).** Blankni elchixonaning internetdagi [www.taschkent.diplo.de](http://www.taschkent.diplo.de) web-sahifasidan olishingiz mumkin.
- chet elliklarning Germaniya Federativ Respublikasi hududida istiqomat qilish shartlari haqidagi qonunning § 54, 2 abzatsi, 8 punkti hamda §53 ga muvofiq **imzolangan izoh**
- kamida bir yil amal qilish muddatiga ega bo'lgan pasportingiz** va uning hamma sahifalaridan nusxa
- Germaniyadagi qalliq pasportining barcha sahifalaridan nusxa(lar).** Agar qalliq Germaniyadan boshqa davlat fuqarosi bo'lsa, uning Germaniyada yashash uchun ruxsatnomasidan nusxa
- Qoidaga binoan: **Germaniya hududida bo'lish haqidagi qonunning 66-68 moddalariga ko'ra**, Germaniyada yashovchi qalliqning nikoh tuzilishiga qadar bo'lgan xarajatlarni o'z zimmasiga olish bo'yicha **majburiyat xati** va qalliq pasportining kseronushxasi. Xorijliklar masalalari bo'yicha mas'ul idoralarning ba'zilari ushbu kafolat xatini arizani ko'rib chiqishning keyingi bosqichlarida talab qilishadi. Agar Sizda bu borada savol paydo bo'lsa, ma'lumot uchun xorijliklar masalalari bo'yicha mas'ul idoraga murojaat qiling.
- Nikoh tuzilishi bo'yicha qo'yilgan barcha talablar bajarilganligi haqida Germaniyadagi nikohni qayd etish idorasi tomonidan berilgan ma'lumotnoma.** Nikoh **bevosita** ushbu tasdiqnoma **berilganidan keyin** tuzilishi kerak. Nikoh tuzish haqidagi ma'lumotnoma, u berilgan kundan olti oy o'tgach, o'z kuchini yo'qotadi. Ushbu muddat davomida nikoh tuzishning iloji bo'lmasa, xorijiy fuqaro bo'lgan qalliq o'z vataniga qaytib ketishga majbur bo'ladi. **Shu sababli ma'lumotnoma olish uchun zarur hujjatlar haqida to'g'ridan to'g'ri nikohni qayd etish idorasiga murojaat qilish tavsiya etiladi.** Nikoh tuzish uchun qo'yilgan barcha talablar bajarilgani haqida ma'lumotnomani berishni tegishli idora ba'zi hujjatlarni tekshirish bilan bog'lashlari mumkin („umumiy eslatmalar“ qismidagi izohlarga qarang)
- nemis tili bo'yicha oddiy bilimlarni tasdiqlash** (A1 darajasida); buning uchun Oilani birlashtirish yoki nikoh tuzib, Germaniyada doimiy qolish uchun nemis tili bo'yicha oddiy bilimlarni tasdiqlash haqida alohida eslatmaga qarang
- Germaniya Federativ Respublikasida bo'lish vaqtida doimiy amal qiladigan tibbiy sug'urta polisi. (ariza bo'yicha qarorni olishdan oldin taqdim etiladi).**